

1,18

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



Tasdiqlayman"

GulDU rektori

M.T.Xodjiyev

2024-yil



IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI

**ONG FALSAFASI
FAN SILLABUSI**

(OF 1606)

Bilim sohasi:	200 000 - San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220500 – Falsafa

Guliston – 2024

© Ushbu hujjat Guliston davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo'lib, to'liq yoki qisman nusxa ko'chirilishi, tarqatilishi yoki ko'paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko'paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o'zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat'iyan man etiladi.

Kun	
Avqust 2024	
	Tuzuvchi: Karimov Y.E – Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi.
	Taqrizchilar: falsafa fanlari bo'yicha f.d. (PhD). B.G'ofurov - "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida katta o'qituvchi.

Izoh: Ushbu fan sillabusi Oxford universiteti va Lomonosov nomidagi MDU ta'lim dasturlari asosida takomillashtirildi.

Mundarija

(OF 1606): Ong falsafasi.....	
1. Fan tavsifi	
2. Fanning dastlabki rekvizitlari.....	
3. Fanning maqsadi.....	
4. Ta'lim berish natijalari.....	
5. Ta'lim berish usullari.....	
6. Soatlar/Kreditlar.....	
7. Fanning tarkibiy tuzilishi.....	
8. Talabalar bilimni baholash.....	
9. Adabiyotlar.....	
10. Akademik talablar.....	

ONG FALSAFASI (OF 1606)

1.Fan tavsifi

Ong falsafasi falsafaning ongning tabiati va ontologiyasini tadqiq etuvchi, uning tana bilan o'zaro aloqasini o'rganuvchi sohasidir. Falsafada tana-ong muammosi anchagina bahsga sabab bo'lgan muammodir, biroq bu borada ba'zi kelishmovchiliklar hal etilgan. Bular qatoriga maxsus ong holatlari kabi muammolarni keltirish mumkin. Ongning bu sohada tadqiq etiluvchi jihatlari qatoriga ong hodisalari, ong funksiyalari, ong xususiyatlari, onglilik va uning asab tizimi vositachilari, ong ontologiyasi, bilish va fikrlash hodisalari tabiati hamda ong va tana munosabatlari kabilarni keltirish mumkin.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida talabalarda ong hodisalarni tahlil eta olish va ularning mohiyatini bilishga oid ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor beriladi.

2.Fanning dastlabki rekvizitlari

Ushbu fanni o'zlashtirish uchun ijtimoiy fanlar turkumiga kiruvchi falsafa, sotsiologiya, psixologiya, fanlaridan zarur bilimlarga ega bo'lish talab etiladi.

3.Fanning maqsadi

Ong falsafasi fani miya, ong, sezgi, tasavvur, xotiraning o'zaro aloqasi, miyaning fiziologik strukturasi va ongning ma'naviy madaniyat mahsuli sifatida inson kamolotiga ta'siriga oid fiziologik, psixologik va ma'naviy taraqqiyot jarayonlarini qamrab oladi.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda ong va ongsizlik dialektikasi, ijtimoiy ong shakllarining inson kamolotidagi roli haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish, o'zining dunyodagi o'rmini anglash va kelajakga to'g'ri mo'ljal olish bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

4.Ta'lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. Ong falsafasining rivojlanish dinamikasi haqida tasavvurga, ongning moddiy va nomoddiy asoslari haqida bilimlarga va ulardan shaxsiy va jamoaviy faoliyatda foydalanish haqida tasavvurga ega bo'ladi;
2. Bugungi axborotlashgan jamiyatda hayotimizning barcha jabhalariga kirib borgan kompyuter texnologiyalari, sun'iy intellekt namunalari bilan kundalik darajada yuzma-yuz kelish ularni tushunishni va ularning mohiyatan inson ongidan farqlanishini anglashni talab qiladi. Fanni o'zlashtirish natijasida talabalar inson ongining inson tom onidan yaratilgan ong ko'rinishlari, masalan mashina intellekti va sun'iy intellektidan farqlash va ulardan foydalana oladi;
3. Talabalarga ong va intellekt orasidagi o'xshashlik va farqlar to'g'risida bilimlar olish, ongning biologik-ma'naviy hodisa, intellektning esa biologik-moddiy hodisa ekanligi haqidagi ko'nikmalar shakllantirish imkonini beradi va bu talabalarga bugungi kun axborot makonida to'g'ri yo'nalish olish ko'nikmalarga ega bo'ladi.

5.Ta'lim berish usullari

- dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;
- ma'ruzalar tayyorlash;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;

- manbalar bilan ishlash.

6. Soatlar/kreditlar

Ta'lim turi	Ma'ruza Soat/kredit	Amaliy mashg'ulot Soat/kredit	Laboratoriya Soat/kredit	Mustaqil ta'lim Soat/kredit	Jami Soat/kredit
Kunduzgi	6-semestr uchun				
	36	36		108	180/6
Yillik jami	36	36		108	180/6

7. Fanning tarkibiy tuzilishi

№	Mavzular	Soat	Ma'ruza mashg'ulotida ko'riladigan masalalar	soat	Amaliy (seminar) mashg'ulot mavzulari	soat	Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari	soat
1	1-mavzu. Ong falsafasiga kirish	12	Ong falsafasi fanining mohiyati, predmeti va vazifalari.	2	Ong ontologiyasi	2	Djon Syorlning "Ongni qayta kashf etib" (Re- Discovery o f the Mind (1992), John Searl) kitobi to'g'risida	8
2	2-mavzu. Ijtimoiy ong va ijtimoiy muhit dialektikasi	12	Ijtimoiy ong va ijtimoiy muhit dialektikasi	2	Ong gnoseologiyasi	2	Ong strukturasi haqida taqdimot tayyorlash	8
3	3- mavzu. Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda ong falsafasiga oid qarashlar tarixi.	14	Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda ong falsafasiga oid qarashlar tarixi.	4	Ong falsafasiga oid klassik va zamonaviy yondashuvlar	2	Ong va intentsionallik to'g'risida konspekt tayyorlash	8
4	4- mavzu. Uyg'onish davrida ongga oid qarashlar evolyutsiyasi	16	Uyg'onish davrida ongga oid qarashlar evolyutsiyasi	4	Anaitik ong falsafasi	4	Ongning reduksionizmi va irreduksionizmi haqida referat tayyorlash	8
5	5- mavzu. Ong falsafasida ong-tana muammosi	12	Ong falsafasida ong- tana muammosi	2	Ong falsafasi metodologiyasi	2	"Ong va uning tabiatdagi o'rni" m avzusida referat tayyorlash	8
6	6- mavzu. Ongga oid dualistik yondashuvlar	12	Ongga oid dualistik yondashuvlar	2	Ong falsafasining fanlararo jihatlar	2	Kartezian dualizmi to'g'risida taqdimot tayyorlash	8
7	7- mavzu. Ong va miya ayniyligi nazariyasi	12	Ong va miya ayniyligi nazariyasi	2	Ong falsafasining klassik va noklassik konsepsiyalari	2	Ong va uni tushunishda bixeyviorizm ta'limotining ahamiyati m avzusida esse yozish	8
8	8- mavzu. Anaitik biheyviorizm	12	Anaitik biheyviorizm	2	Ijtimoiy ong ijtimoiy borliqning in'ikosi	2	Ongning reprezentatsional nazariyasi va funktionalizm mavzusida taqdimot tayyorlash	8
9	9- mavzu.	14	Funktionalizm - ong	2	Ijtimoiy ong va	4	Rene D ekartning	8

	Funksionalizm - ong haqidagi ta'limot.		haqidagi ta'limot.		ijtimoiy muhit dialektikasi		ong va materiya to'g'risidagi qarashlari haqida konspekt tayyorlash	
10	10- mavzu. Ong muammosiga nisbatan noreduktiv monizm nuqtai-nazaridan yondashuv.	10	Ong muammosiga nisbatan noreduktiv monizm nuqtai-nazaridan yondashuv.	2	Ongning yozuv shakllanishidagi roli	2	Abu Ali Ibn Sinoning ong haqidagi qarashlarini konspektlashtirish.	6
11	11- mavzu. Ong falsafasida psixofizik sababiyatlar	10	Ong falsafasida psixofizik sababiyatlar	2	Ong va ratsionallik dialektikasi	2	Ong- hisoblovchi mashina (kompyuter) sifatida" mavzusida taqdimot tayyorlash	6
12	12- mavzu. Ong falsafasida "o'zga onglar" nazariyasi	10	Ong falsafasida "o'zga onglar" nazariyasi	2	Irratsionallikdagi oqilonlik metamorfozasi	2	Zigmund Freydning Onglilik va ongsizlik haqidagi qarashlarini konspektlashtirish	6
13	13- mavzu. Ong falsafasida shaxsiy identiklik jismoniy uzviylik sifatida.	10	Ong falsafasida shaxsiy identiklik jismoniy uzviylik sifatida.	2	Ong falsafasida shaxsiy identiklik jismoniy uzviylik sifatida	2	Deniel Dennoetning "Ong: izohlandi" (Consciousness Explained (1991). asarini o'qish asosida konspektlashtirish	6
14	14- mavzu. Ong falsafasida shaxsiy identiklik ruhiy uzviylik/davomiylik sifatida	10	Ong falsafasida shaxsiy identiklik ruhiy uzviylik/davomiylik sifatida	2	Ong falsafasida shaxsiy identiklik ruhiy uzviylik/davomiylik sifatida	2	Ong to'g'risida "Identiklik nazariyasi" haqida taqdimot tayyorlash	6
15	15-mavzu. Ong falsafasiga oid bilimlarni amalda qo'llash istiqbollari	12	Ong falsafasiga oid bilimlarni amalda qo'llash istiqbollari	4	Ong falsafasiga oid bilimlarni amalda qo'llash istiqbollari	4	Ong haqida funksionalistik qarashlar evolyutsiyasi to'g'risida konspekt tayyorlash	6
Jami		180		36		36		108

8. Talabalar bilimini baholash

№	Baholash turi	Topshiriqlar turi	Topshiriq soni	Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball	Jami
1	Joriy baholash	Mustaqil ish topshiriqlari	5	4	20
		Seminar mashg'ulotlardagi ishtiroki	10	1	10
		Ma'ruza mashg'ulotlaridagi ishtiroki	10	1	10
2	Oraliq baholash	Mustaqil ish topshiriqlari	2	5	10
		Yozma og'zaki yoki test	2	5	10
3	Yakuniy baholash	Yozma, og'zaki, ijodiy ish, test va h.k.	1	40	40
4	Jami		30		100

Izoh: Mustaqil ish topshiriqlarini baholash GulDU Kengashining 11- sonli bayoni bilan tasdiqlangan "Talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilish tartibi" asosida baholanadi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$UB=JN+ON+YN$$

bu yerda: JN – joriy nazorat; ON – oraliq nazorat; YN – yakuniy nazorat.

9.ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

- 1.Shermuxamedova N.A. Inson falsafasi. - Toshkent: "Ilm -Ziyo-Zakovat",2021.
- 2.Philosophy o f Mind (ed. Amy Kind). - "Routledge", 2019.
- 3.Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. I.Karimov, S.Valieva, K.Tulenova – Toshkent, 2014, 132 bet
- 4.Ijtimoiy falsafa. O'quv qo'llanma. Mualliflar jamoasi. – Toshkent, Universitet, 2009
- 5.To'ychiev B.T., Ziyodullaeva X. Osnovi sotsialnoy filosofii.- T.: 2010.
6. Falsafa asoslari. Q.Nazarov tahriri ostida. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2018.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Иванов Дмитрий Валерьевич Природа феноменального сознания. - М.: Книжный дом "Либроком", 2013. - 240 с.
2. Родзинский Д.Л. Небытие и бытие сознания в ранних формах индийской, китайской и греческой философии. - М.: Московский психолого-социальный институт, 2006. - 280 с.
3. Келле В.Ж., Ковальзон М.Я. Формы общ ественного сознания. - М.:Государственное издательство политической литературы, 1959.
4. Васильев Вадим Сознание и вещи. Очерк феноменалистической онтологии. - М.: Книжный дом "Либроком", 2014. - 240 с.
5. Хабермас Юрген Моральное сознание и коммуникативное действие (пер. с нем.). - СПб.: "НАУКА", 2001.
6. Sh.Kenjaye, A.Assotullayev "Falsafa", o'quv qo'llanma, Toshkent-2024-yil,

Axborot manbaalari

1. www.ziyouet.uz
2. <http://www.filosofia.ru>.
3. <http://www.falsafa.dc.uz>

10. Akademik talablar

O'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabat samimiy va beg'araz bo'lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o'quv platforma orqali yuboradi va javobni ham shu tartibda oladi.